

## **BARMOQ IZLARI ORQALI SHAXSNI INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI ANIQLASH**

**p.f.n.dotsent.(DSc)**

**Turg’unov Abdurashid Abdumannobovich**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada “daktiloskopiya” — barmoq izlari orqali shaxsni individual xususiyatlarini aniqlash yo‘llari bayyon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kriminalistika, daktiloskopiya, barmoq izlari, shaxsni individual xususiyatlari, ilmoqlar, qo‘sh ilmoqlar, yopiq ilmoq-raketkalar, yoylar, arklar, burmalar va tasodifiy elementlar.

Bugun turli sohalarda, xususan raqamlashtirish jarayonlarida insonning barmoq izlaridan foydalanish keng tarqalgan. Mazkur jarayon ilm-fanda “daktiloskopiya” — barmoq izlari orqali shaxsni aniqlash deb nomlanadi. Angliyalik fiziolog Gershel ancha yillik izlanishlarida bir shaxsning barmoq izi boshqasirikiga o‘xshamasligini aniqlagan. Shundan so‘ng u anatomiya darsliklarini varaqlab, o‘zining kashfiyotini barmoqdagi papillyar chiziqlar yordamida asosladi. Shu tariqa barmoq izlari inson shaxsini tasdiqlovchi o‘zgarmas muhr ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Barmoq izlari orqali shaxslarni aniqlash ilk bor XIX asrning oxirlarida Buyuk Britaniyada kashf etilgan. O‘sha paytlarda angliyalik ma’murlar hindistonlik ishchilarga oylik maosh tarqatishda imzo o‘rnida barmoq izlaridan foydalanganlar, keyinchalik esa bu jinoyat izlarini aniqlashda qo‘llanilgan.

Bugungi kunda barmoq izlari orqali jinoyatlarni fosh etish samarali hisoblanadi. Buning uchun alohida yo‘nalish: “Kriminalistika” tashkil etilgan. Kriminalist-ekspertlar jinoyat sodir etilgan voqea joyida turli ashyoviy dalillarda jinoyatchining qoldirgan barmoq izlari orqali ularning jinoyatlarini fosh etib kelmoqda. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiy etgan sari, barmoq izlari orqali nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki xavfsizlikni ta‘minlash va texnikalardan foydalanishda qulayliklar yaratmoqda. Masalan, mobil telefonlarda barmoq izlari orqali boshqarish funksiyasi allaqachon ishga tushirilgan. Ikki qo‘lingizdagi barmoqlarning izlari har xil desak ishonasizmi? Dunyoda bir xil barmoq izlariga ega insonlar yo‘q desakchi? Qadim zamonlardayoq odamzod barmoq uchlarida naqshlar borligini payqagan. Xitoy aholisi ularni ancha yillar oldin turli maqsadlarda ishlatgan. Yaqin ikki asrdan boshlab odamlar barmoq izlarini jinoyatchilarni aniqlash vositasi sifatida ishlatishni boshladilar. Birinchi bo‘lib 1880-yilda Angliyada yashagan doktor Genri Folds ularni shu maqsadda qo‘llashni taklif qilgan. 1882-yilda taniqli ingliz olimi Frensis Galton esa bir-biriga o‘xshash ikkita barmoq izi bo‘lmasligini isbotlagan. U daktiloskopik<sup>1</sup> varaqalar to‘plamini yig‘ishni boshlagan birinchi inson edi. Uning nazariyalari bilan Buyuk Britaniya hukumati qiziqqa boshlagan. Hukumat jinoyatchilarni aniqlashda barmoq izlarini qo‘llash imkoniyatlarini topish uchun maxsus komissiya tayinladi.

Ser Genri barmoq izlarini tasniflash (guruhlash) va saqlash tizimini ixtiro qildi. Tushunganingizdek, tegishli solishtirish tizimisiz bu ish juda uzoq vaqt talab etadi, tergov paytida esa tezkorlik juda muhimdir. Uning tasnifiga ko‘ra, barmoqdagi naqshning quyidagi elementlari ajratib olingan: ilmoqlar, qo‘sh ilmoqlar, yopiq ilmoq-raketkalar, yoylar, arklar, burmalar va tasodifiy elementlar[2]. Agar izning ma‘lum bir nuqtalari orasidagi chiziqlar hisoblab chiqilsa, o‘nta barmoq izining har birini maxsus guruhga osongina tasniflash mumkin. Tasniflash uchun gumonlanuvchining barcha 10 ta barmog‘ining izlari olinadi. Bu tizimga muvofiq qayta ishlangan barmoq izlari varaqalari shaxsning ismi va guruhidan yoki u tomonidan sodir etilgan jinoyat turidan qat‘i nazar, ma‘lum bir ketma-ketlikda joylashtiriladi. Politsiya kartotekasida (ma‘lumotlar bazasi) millionlab varaqalar bo‘lishi

mumkin, ammo shaxsni aniqlash uchun bir necha daqiqa yetarli bo’ladi. Federal qidiruv byurosining kartotekasida 100 million odamning barmoq izlari varaqasi mavjud. U yerda harbiy xizmatchilar, shuningdek, davlat arboblarning barmoq izlari ham saqlanadi.

Bugungi kunda politsiya Buyuk Britaniyada ishlaydigan barcha chet elliklarning, shuningdek mudofaa korxonalarida ishlaydigan ishchilarning ham barmoq izlarini olmoqda. Siz ham 16 yoshga to’lganingizda, pasport uchun barmoq izlaringizni olishadi va ma’lumotlar bazasiga kiritishadi. Barmoq izlariga berilgan urg’uning o’ziga xos ma’nosi bor. Chunki har bir kishining barmoq izidagi shakllar va kichik detallar har bir shaxs uchun yagonadir. Nafas olib turgan har bir inson yoki bu olamda yashab o’tgan insonlar takrorlanmas barmoq izlari to’plamiga egadirlar. Bundan tashqari, hatto bir xil DNK ketma-ketligiga ega bo’lgan o’xshash egizaklar ham o’zlarining alohida barmoq izlari to’plamiga ega. Barmoq izlari tug’ilishdan oldin yakuniy shaklga kiradi va umr bo’yi, agar doimiy chandiq orttirilmasa, o’zgarmasdan qoladi[1]. Shu bois, o’z egalariga yagona bo’lgan barmoq izlari shaxsiyatni juda ham to’g’ri tasdiqlovchi dalil sifatida qabul qilinadi. Barmoq izlari ilmidan shaxsni xatosiz aniqlash uslubi sifatida foydalaniladi. Barmoq izlarining bu fazilati faqatgina XIX asrning oxirlarida kashf qilinganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Undan oldin, barmoq izlari hech qanday ahamiyatsiz yoki ma’nosiz oddiy egri chiziqlar deb tushunilar edi.

Barmoq izlari vositasida shaxsni aniqlash usulining qonunga muvofiqligi keyingi yigirma besh yil ichida ko’plab politsiya mahkamalari tomonidan tasdiqlangan va u qonuniy isbotlangan uslubdir. Bizning davrimizdagi shaxsni aniqlovchi hech bir texnologiya barmoq izlaridek bunday samarali natijalarni bermaydi. Shaxsni tasdiqlash uchun barmoq izlaridan foydalanish keyingi 100 yil ichida qonuniy jarayonlarda va xalqaro e’tiborga molik jarayonlarda qo’llanib kelinmoqda. AndreA. Moensen so’zining “Fingerprint Techniques” (Barmoq izi usullari) nomli kitobida har bir shaxs yagona barmoq izlari to’plamiga ega ekanligini tahlil qiladi: «... shu paytgacha turli barmoqlardan olingan ikki barmoq izining bir-biriga aniq mos tushganlik hodisasiga biror marta ham duch kelinmagan.

#### **Foydalagan adabiyotlar**

1. Andre A. Moensen “Fingerprint Techniques” (Barmoq izi usullari).
2. Ser Genrining “Barmoq izlarini tasniflash” (guruhlash).